

"KDB Bank O'zbekiston" AJ (keyingi o'rinlarda "Bank") IT-kompaniyalarni Bankning ichki foydalanishi uchun "Intranet" tizimini yaratish bo'yicha tenderda ishtirok etishga taklif qiladi.

Texnik va funksional tavsifini, shuningdek, quyida keltirilgan loyihaning maqsad va vazifalariga muvofiq tuzilgan narxlar ro'yxati (prays-list)ni o'z ichiga olgan tijorat taklifini 2020 yil 6 iyulgacha Bankning quyidagi manziliga yuborishingizni so'raymiz: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Buxoro ko'chasi 3-uy.

Tender natijalari tender qatnashchilarining elektron manzillariga yuborish orqali ma'lum qilinadi.

Loyihaning maqsad va vazifalari

hujjatlar ijrosi ustidan markazlashtirilgan va tezkor nazoratni ta'minlash;

tegishli operatsion hisobotlarni va hujjat ijrosining joriy holatini, shuningdek ijro intizomi bo'yicha hisobotlarni foydalanuvchilarning talabiga binoan xujjat mas'ul ijrochilari kesimida shakllantirilishini ta'minlash;

ma'muriy hujjatlarni va ular bo'yicha qabul qilingan qarorlarni markazlashtirilgan saqlash tizimini ta'minlash;

buyruq va ko'rsatmalar ijrosi samaradorligini oshirish;

departamentlararo ish jarayonida shakllangan ma'lumotlarning maxfiyligi va bus-butunligini ta'minlash;

departamentlar o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi jarayonini ta'minlash;

hujjatlarni tasdiqlash varaqasini shakllantirish va tasdiqlangan shaklda chop etish;

elektron hujjat shakllarini ishlab chiqish va ular asosida yaratilgan elektron hujjatlarni saqlash va boshqarishni avtomatlashtirish;

to'g'ri shakllantirilgan elektron hujjatlarni zudlik bilan olish imkoniyatini beradigan funksional;

real vaqt rejimida departamentlar o'rtasida elektron pochta xabarlarini himoyalangan elektron pochta xizmati orqali, shuningdek tezkor xabarlarini yuborish va qabul qilish (chat) imkoniyatini ta'minlash.